JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



BOLIYEV
Umar Usmonovich
Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada jinoyatchilikning oldini olishning mazmun-mohiyati, profilaktikaning asosiy yo‘nalishlari va O‘zbekistonda shakllanayotgan milliy yondashuv tahlil qilingan. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali yo‘li jinoyat sodir etilgandan keyin chora ko‘rish emas, balki uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldindan aniqlab, bartaraf etishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, mahalla tizimi, aholi bilan manzilli ishlash va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish profilaktikaning muhim omili sifatida baholangan. Ayni paytda, idoralararo axborot almashinuvi, raqamli jinoyatchilikka qarshi kurashish va jabrlanuvchilar bilan ishlashda mavjud kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va jamoatchilikning profilaktikadagi rolini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.*
Kalit so‘zlar: *jinoyatchilik, jinoyatchilikning oldini olish, profilaktika, huquqbuzarlik, jamoat xavfsizligi, mahalla tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, raqamli jinoyatchilik, jabrlanuvchi, kriminologiya*

Аннотация. *В статье анализируются сущность профилактики преступности, основные направления предупредительной деятельности и формирующийся в Узбекистане natsional'ный подход к решению этой задачи. Наиболее эффективный способ борьбы с преступностью заключается не в принятии мер после совершения правонарушения, а в заблаговременном выявлении и устранении причин и условий, способствующих его возникновению. С этой точки зрения важными факторами профилактики считаются система махалли, адресная работа с населением и расширение участия общественности. В то же время отмечаются недостатки в межведомственном informatsionном обмене, борьбе с киберпреступностью и работе с потерпевшими. Для решения этих проблем в статье выдвигаются практические предложения по совершенствованию правовых механизмов, эффективному использованию цифровых технологий, укреплению межведомственного взаимодействия и повышению роли общественности в профилактической деятельности.*
Ключевые слова: *преступность, предупреждение преступности, профилактика, правонарушение, общественная безопасность, институт махалли, правоохранительные органы, цифровая преступность, потерпевший, криминология.*

Abstract. *This article analyzes the essence of crime prevention, the main directions of preventive activities, and the national approach to addressing this task currently emerging in Uzbekistan. The most effective way to combat crime lies not in taking measures after an offense has been committed, but in proactively identifying and eliminating the causes and conditions that contribute to its occurrence. From this perspective, the «mahalla» system, targeted engagement with the population, and expanded public participation are considered key factors in prevention. At the same time, shortcomings are noted in interagency information sharing, the fight against cybercrime, and support for victims. To address these issues, the article puts forward practical proposals for improving legal mechanisms, effectively utilizing digital technologies, strengthening interagency cooperation, and enhancing the role of the public in prevention efforts.*
Keywords: *Crime, crime prevention, prophylaxis, offense, public safety, mahalla system, law enforcement agencies, digital crime, victim, criminology.*

Jinoyatchilikka qarshi kurashish davlatning faqat repressiv (jazolash) funksiyasi emas, balki shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks ijtimoiy-huquqiy faoliyatidir. Zamonaviy kriminologiyada “jinoyat sodir bo‘lgandan keyin javob berish” modeli tobora ko‘proq “xavfni oldindan aniqlash – sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish – jabrlanuvchini himoya qilish – natijani o‘lchash” zanjiri bilan to‘ldirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida profilaktika huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablarini hamda ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik choralar tizimi sifatida mustahkamlangan [1].

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, unda tinchlik, osoyishtalik va huquqiy tartibning mustahkam bo‘lishiga bog‘liq. Fuqarolar o‘z uylarida, ko‘chada, ishxonasida o‘zini xavfsiz his qilgan jamiyatda insonlar farovon yashaydi, jamiyatda iqtisodiyot rivojlanadi. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish masalasi barcha davlatlardagi kabi O‘zbekistonda ham doimiy dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ko‘pchilik *"jinoyatchilikka qarshi kurashish"* deganda faqat ichki ishlar organlarining jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topishi va jazolashini tushunadi. Aslida esa, jinoyatchilikning oldini olish masalasi bu bilan cheklanmaydi.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng to‘g‘ri yondashuv – jinoyat sodir etilgandan keyin chora ko‘rish emas, balki uning oldini olishdir. Buning uchun jinoyatga olib kelishi mumkin bo‘lgan sabab va sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish lozim. Oddiy qilib aytganda, kasallikni davolashdan ko‘ra, uning oldini olgan ma’qul. Jinoyatchilikka ham shu tamoyil asosida yondashish lozim.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni 2020-yildagi 62 081 tadan 2025-yilda 155 002 taga yetgan [2]. Biroq bu o‘sishni avtomatik ravishda “jinoyatchilik ikki yarim baravar yomonlashdi” deb talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Birinchidan, ro‘yxatga olish va aniqlash amaliyotidagi o‘zgarishlar statistikaga ta’sir qiladi. Ikkinchidan, 2025-yil yakunida jami jinoyatlarning 49,6 foizi kiberjinoyatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan, oldi olinishi lozim bo‘lgan jinoyatlar esa 4,6 foizga kamaygan [3]. Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatni baholashda jinoyatlarning tuzilishi, latentlik, aniqlanish, hududiy va viktimologik xususiyatlar va profilaktika natijalarini birgalikda tahlil qilish talab etiladi.

Q.R.Abdurasulova kriminologiyaning hozirgi vazifalarini jinoyatchilik, uning sabab va shart-sharoitlari, jinoyatchi shaxsi, jabrlanuvchi va profilaktika qonuniyatlarini o‘rganish, kriminologik prognozlash hamda amaliyotni ilmiy taklif va tavsiyalar bilan ta’minlash bilan bog‘laydi [4]. N.S. Salayev penitensiar tizim misolida profilaktika faqat jazoni ijro etish jarayoni emas, balki mahkumni qayta ijtimoiylashtirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks funksiya[5] ekanini ta’kidlaydi.

Nazarimizda, ilmiy nazariy jihatdan jinoyat va jinoyatchilik bir-biridan farq qilishini aniq va tushunarli tushunchalar bilan quyidagicha farqlash maqsadga muvofiq:

Ya’ni, ***jinoyat*** – bu muayyan bir shaxs tomonidan sodir etilgan, jinoyat qonuni bilan taqiqlangan va jazo belgilangan aniq qilmish. Masalan, o‘g‘rilik, firibgarlik, tan jarohati yetkazish yoki pora olish alohida jinoyat hisoblanadi. Demak, jinoyat deganda bitta aniq voqea yoki qilmish tushuniladi. ***Jinoyatchilik*** esa – muayyan hududda va ma’lum vaqt davomida sodir etilgan barcha jinoyatlarning umumiy holatini ifodalovchi ijtimoiy hodisa. Masalan, bir yil davomida Toshkent shahrida sodir etilgan barcha o‘g‘rilik, firibgarlik, bezorilik va boshqa jinoyatlar yig‘indisi jinoyatchilik holatini ko‘rsatadi.

O‘z o‘rnida, “jinoyatchilikning oldini olish” jumlasining ham aniq ma’nosini ifodalash lozim. Xususan, *jinoyatchilikning oldini olish* jinoyat sodir etilgandan keyin unga munosabat bildirish emas, balki jinoiy xavfni oldindan ko‘ra bilish, uni yuzaga keltiruvchi omillarga maqsadli ta’sir ko‘rsatish va jamiyatda xavfsiz huquqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz kriminologik faoliyatdir.

Milliy kriminologik maktabda jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shaxsning g‘ayriijtimoiy xulqini tuzatish, jabrlanuvchining

xavfsizligini ta’minlash, prognozlash va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi.

Q.R. Abdurasulovaning talqiniga ko‘ra, kriminologiya amaliyotdan ajralgan nazariy fan emas, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun ilmiy tavsiyalar beruvchi ijtimoiy-huquqiy fan hisoblanadi. Bu fikr profilaktika qarorlarini «tajribada shunday» degan idoraviy odatga emas, balki tahliliy dalillarga asoslash kerakligini anglatadi.

N.S. Salayevning penitensiar profilaktikaga doir tadqiqotlari esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda jazoni ijro etishdan keyingi bosqichning ahamiyatini ko‘rsatadi. Muallif qayta ijtimoiylashtirish, psixologik yordam va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish retsidivning oldini olishga xizmat qilishini asoslaydi. Shundan kelib chiqib, probatsiya nazorati faqat cheklov va tekshiruvlar majmui sifatida emas, bandlik, hujjatlashtirish, kasbiy ko‘nikma, oilaviy muhit va ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘langan «qayta integratsiya yo‘nalishi» sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Amaliyotda ijtimoiy profilaktika va manzilli ishlash elementlari kengaymoqda. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilning birinchi olti oyida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 2 011 taga kamaygan va mahallalarning 55 foizida jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagan [6]. Shuningdek, 2025-yilda besh viloyatdagi kriminogen vaziyati og‘ir 419 ta mahallaga xizmat qiluvchi mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilib, profilaktika, tezkor-qidiruv, patrul-post, yo‘l-patrul, xotin-qizlar va probatsiya yo‘nalishlari bir nuqtada integratsiya qilingan [7]. Mazkur modelning kuchli jihati muammoni faqat profilaktika inspektoriga yuklamasdan, funksional guruh asosida hal etishdan iborat.

Raqamli va texnik vositalardan ham keng foydalanilmoqda. Masalan, birgina Yakkabog‘ tumanida 2025-yil davomida mahallalarning kirish-chiqish joylari, ko‘p qavatli uylar, savdo markazlari, bozorlar va maktablarga 1 054 ta videokuzatuv kamerasi, 104 ta domofon majmuasi va 63 ta tashvish tugmasi o‘rnatilgani qayd etilgan [7]. Bunday infratuzilma jinoyatning fosh etilishi va tezkor javob choralariga yordam berishi mumkin, biroq uning real profilaktik ta’siri jinoyatlar soni, takroriy chaqiriqlar, fosh etish vaqti va fuqarolarning xavfsizlik hissi kabi indikatorlar bilan alohida baholanishi zarur.

E’tiborli tomoni bugungi kunda O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishda mahallaning o‘rni juda muhim. Mahalla aholi bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi va hududdagi muammolarni tezda aniqlash imkoniyatiga ega. Shu sababli mahalla tizimi orqali jinoyatlarning oldini olish tajribasi o‘ziga xos “o‘zbek modeli” sifatida qaraladi [8]. Bu tizimda mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va jamoat tashkilotlari birgalikda ishlaydi. Ular muammoli oilalarni o‘z vaqtida aniqlaydi, ular bilan ishlaydi va oiladagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, yoshlar va boshqa nazoratga muhtoj fuqarolar bilan profilaktik ishlar olib boriladi. Bunday hamkorlik jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rishdan ko‘ra, uning oldini olishga ko‘proq yordam beradi. Eng muhimi, mahalladagi muammolar qancha erta aniqlansa, ularni hal qilish va jinoyat sodir bo‘lishining oldini olish imkoniyati shuncha yuqori bo‘ladi.

2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan Prezident qarorida mahallalarda jinoyatlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratilgan. Unda har bir mahallada jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘layotgan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish vazifasi belgilangan. Ayniqsa, oilaviy nizolar va oila-turmush munosabatlari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishda ilmiy yondashuvdan foydalanish, ya’ni avval muammoni o‘rganish, keyin amaliy tavsiya berish va uning natijasini tekshirish tartibi joriy etilgan [9].

2026-yil 5-yanvarda qabul qilingan Prezident qarori bilan bu ishlar yanada kuchaytirildi. Unda kriminogen vaziyati murakkab, ya’ni “qizil” toifaga kiritilgan mahallalarda jinoyatlarning oldini olish va xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha manzilli choralar belgilab berildi. Shuningdek, hokimlar va huquq-tartibot idoralari rahbarlarining bu yo‘nalishdagi mas’uliyati kuchaytirildi [10].

Bu o‘zgarishlardan ko‘rinib turibdiki, jinoyatchilikning oldini olish faqat ichki ishlar organlarining vazifasi emas. Bu ishda mahalliy hokimliklar, prokuratura, mahalla faollari, jamoatchilik va ilmiy muassasalar ham birgalikda ishtirok etishi kerak. Asosiy maqsad – jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rish emas, balki uning sababini oldindan aniqlab, muammoni o‘z vaqtida hal qilishdir.

Bu borada ayrim xorijiy mamlakatlarda jinoyatchilikning oldini olishda politsiya va aholi hamkorligiga katta ahamiyat beriladi. Bunday yondashuvda politsiya faqat jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rmaydi, balki mahalliy aholi bilan birga muammolarni aniqlab, ularning oldini olishga harakat qiladi. BMTning jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha materiallarida ham jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va aholi bilan hamkorlikda ishlash samarali usullardan biri sifatida ko‘rsatilgan [10].

Shuningdek, ko‘plab davlatlarda jinoyat sodir etgan shaxslarni jazoni o‘tab bo‘lgandan keyin jamiyatga qayta moslashtirishga e’tibor qaratiladi. Bunda ularga ish topish, kasb o‘rgatish, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi choralar qo‘llaniladi. UNODC (***BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi*** (*United Nations Office on Drugs and Crime*) ma’lumotlariga ko‘ra, bunday reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv dasturlari qayta jinoyat sodir etish xavfini kamaytirishga yordam beradi [11].

Erishilgan yutuqlarga qaramasdan, jinoyatchilikning oldini olish yo‘nalishida hali ham ***ayrim muammolar*** mavjud.

Birinchidan, axborot almashinuvi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari o‘rtasida xavfli holatlar haqidagi ma’lumotlar har doim ham o‘z vaqtida almashilmaydi. Masalan, oiladagi zo‘ravonlik yoki voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi kabi holatlar haqida ma’lumot kech yetkazilsa, muammoni o‘z vaqtida bartaraf etish yoki huquqbuzarlikning oldini olish qiyinlashadi.

Ikkinchidan, profilaktika ishlari ayrim hollarda tizimli olib borilmaydi. Oiladagi muammolarni aniqlash va jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha ishlar ba’zan vaqtinchalik tadbirlar bilan cheklanib qoladi. Aslida profilaktika doimiy ravishda, muammoning sabablarini o‘rgangan holda olib borilishi kerak .

Uchinchidan, raqamli jinoyatchilikka qarshi kurashishda ayrim kamchiliklar mavjud. Internet orqali sodir etiladigan firibgarlik, kiberhujum va boshqa huquqbuzarliklar yangi usullarda sodir etilmoqda. Shu sababli ularni aniqlash va oldini olish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish hamda mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur.

To‘rtinchidan, jabrlanuvchilar bilan ishlashni yanada kuchaytirish lozim. Jinoyatdan jabrlangan shaxslarga psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Bunday yordamning yetarli bo‘lmasligi ayrim hollarda jabrlanuvchilarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishdan tortinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Beshinchidan, profilaktika ishlarining natijalarini baholash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Amalga oshirilgan profilaktika tadbirlari haqiqatan ham jinoyatchilikni kamaytirishga qanchalik ta’sir qilayotganini aniqlash uchun aniq statistik va ilmiy mezonlardan foydalanish kerak. Bunday baholash kelgusida qaysi usullar samarali, qaysi yo‘nalishlarda esa qo‘shimcha choralar zarurligini belgilash imkonini beradi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ishlarga e’tibor berish zarur:

Birinchisi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar, mahalla va boshqa tegishli tashkilotlar o‘rtasida axborot almashish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda jinoyatchilik holati, huquqbuzarlikka moyil shaxslar, xavf omillari va jinoyatchilik darajasi yuqori hududlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona elektron tizim orqali o‘z vaqtida almashish muhimdir. Bu esa xavflarni barvaqt aniqlash, muammoli hudud va shaxslarni belgilash hamda manzilli profilaktik choralarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ikkinchisi, profilaktika ishlarini kuchaytirish lozim. Bunda jinoyatchilikning holati va dinamikasi, uning sabab va shart-sharoitlari hamda xavf guruhidagi shaxslarni tahlil qilish asosida xavflarni oldindan aniqlash va manzilli profilaktik choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish zarur.

Uchinchisi, jinoyatlarning oldini olish va ularni tezkor aniqlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Xususan, videokuzatuv tizimlari, sun’iy intellekt, geoinformatsion tizimlar (GIS), raqamli ma’lumotlar bazalari va analitik platformalardan foydalanish jinoyatchilikning hududiy va vaqt bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish, xavfli hududlarni aniqlash hamda profilaktik choralarni manzilli tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, kiberjinoyatlarni aniqlash, raqamli izlarni tahlil qilish va kiberxavflarga tezkor javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchisi, jinoyatchilikning oldini olishda mahalla va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish zarur. Xususan, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, xavf guruhidagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda muammoli holatlar haqida mas’ul tashkilotlarni o‘z vaqtida xabardor qilishda mahalla faollari va jamoatchilik rolini oshirish muhimdir. Bunday hamkorlik xavflarni barvaqt aniqlash, manzilli profilaktik choralarni amalga oshirish va xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Beshinchisi, jinoyat qurbonlariga ko‘rsatiladigan yordam samaradorligini oshirish zarur. Amaldagi tizimda ayollar va voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish mexanizmlari mavjudligini inobatga olib, xizmatlarning tezkorligi va o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, shuningdek, barcha toifadagi jabrlanuvchilarning zarur yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Jabrlanuvchilarni zarur xizmatlarga tezkor yo‘naltirish, individual ehtiyojlarini hisobga olish va takroriy jabrlanishning oldini olish bo‘yicha idoralararo hamkorlikni kuchaytirish ularning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.


Oltinchisi, profilaktika ishlari samaradorligini muntazam baholab borish zarur. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar va boshqa mas’ul tashkilotlar jinoyatchilik va huquqbuzarliklar dinamikasi, profilaktik chora-tadbirlar natijadorligi hamda hududdagi xavf omillarining o‘zgarishini aniq mezonlar asosida tahlil qilishi lozim. Bu samarasiz choralarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va keyingi profilaktik tadbirlarni real natijalarga asoslangan holda belgilash imkonini beradi.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini zamonaviy kriminologiya nazariyalari va usullari bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, zamonaviy kriminologiya, viktimologiya va sotsiologiya fanlari jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan turli nazariya va konsepsiyalarni ishlab chiqqan bo‘lib, ularni amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etish profilaktika samaradorligini oshiradi [12].

Demak, *xulosa sifatida* shuni ta’kidlash kerakki, jinoyatchilikning oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Bu ishda davlat tashkilotlari, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorlikda ishlashi kerak. Eng muhimi, jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rish emas, balki uning sabablarini oldindan aniqlash va bartaraf etishdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha mahalla tizimiga tayangan yondashuv tobora kuchayib bormoqda. Mahalladagi muammolarni aniqlash, aholi bilan ishlash va profilaktika choralarini belgilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda mas’ul tashkilotlar va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, axborot almashinuvini yaxshilash, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, jabrlangan shaxslarga yordam ko‘rsatish va profilaktika ishlarining natijalarini baholashni yanada kuchaytirish zarur.

Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, idoralar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va profilaktika ishlariga ilmiy yondashuvni kengaytirish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, jinoyatchilikning oldini olishda eng samarali yo‘l – muammoni oldindan ko‘rish, uning sababini aniqlash va o‘z vaqtida chora ko‘rish. Bu kabi yondashuvlar faqat jinoyatlar sonini kamaytirishga emas, balki mamlakatda fuqarolar o‘zini xotirjam va xavfsiz his qiladigan muhitni shakllantirishga ham yordam beradi.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonuni. URL: https://lex.uz/docs/2387357
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni (hududlar bo'yicha), indikator 2.04.09.0001. Yangilangan: 22.04.2026. URL: https://siat.stat.uz/data/800/?lang=uz.
3. O 'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. 2025-yil 12 oyi yakunlari bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumot // Rasmiy portal materiali, 2026.
4. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya fanining vujudga kelishi, dolzarb vazifalari va rivojlanish istiqbollari // Yurisprudensiya, 2026. – 4(4). – B. 77–88. URL: https://yurisprudensiya.tsul.uz/index.php/yurisprudensiya/article/view/634
5. Salayev N.S. Penitensiar tizimda profilaktik funksiyaning ahamiyati va uning samaradorligini ta'minlash masalalari // Yurisprudensiya, 2026. URL: https://yurisprudensiya.tsul.uz/index
6. O'zbekiston Respublikasi IIVda 2025-yil 6 oyi davomida huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan videoselektor yig'ilishi, 13.07.2025. URL: https://gov.uz/iiv/news/view/68142.
7. O'zbekiston Respublikasi IIV “Mahallaga xavfsizlik, fuqaroga xotirjamlik – Davlat rahbarining qaror va topshiriqlari ijroda”, 2025. URL: https://gov.uz/oz/iiv/news/view/81428.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-2-son “2026-yilda respublika mahallalarida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. Rasmiy ijro materiallari: https://gov.uz/oz/zomin/news/view/128463.
9. Маҳаллаларда жиноятчиликнинг олдини олишда илмий ёндашув жорий этилмоқда. NORMA.UZ. Манба: https://www.norma.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarori. – Toshkent, 2026.
11. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar. Ilmiy maqola (kriminologiya nazariyalari bo'yicha). Manba: https://proacademy. uz/postfiles/ sets/l5/-9/L5- 9b0QfV26NAIJH4 AUgHydSV6htFVW6.pdf.
12. Kriminologiyaning dolzarb masalalari: "Xavfsiz oila" (oilada profilaktika muammolari bo'yicha). Manba: https://kti.iiv.uz/storage/journal/files/ btMMwxA6STWbnVWwpfsh2CvheKkFeO.

